



ISAJON SULTON HIKOYALARIDAGI RAMZLAR HAQIDA MULOHAZALAR

Avezova Gulnora Samandarovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchining tabiat manzaralari tasviriga ramziy ma’nolar yuklash mahorati, inson hayotining tabiat, borliq bilan chambarchas bog‘liqligiga doir nukta nazarlari masalasi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье размышляется способность писателя накладывать символические смыслы на изображение природных сцен, его взгляды на тесную связь жизни человека с природой и существованием.

Annotation: This article reflects on the writer's ability to impose symbolic meanings on the image of natural scenes, his points of view on the close connection of human life with nature and existence.

Kirish. Adib asarlari haqida, uning “qolip”ga sig‘magan ijodiy tafakkuri haqida tanqidchilarimiz turli xil qarashlarini ilgari surishmoqda. Ijodkor taqdim etayotgan asarlar qay darajada o‘zlashtirilishidan qat’iy nazar adabiyotshnoslarimiz va sinchkov kitobxonlarimiz tomonidan o‘z bahosini olmoqda. Zero shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda, globallashuv davrida adabiyot otlig‘ muqaddas dargohda o‘z o‘rniga va ovozigaga ega bo‘la olish, boz ustiga mohir sinchilar tahlilidan otish oson ish emas. I.Sulton asarlarida milliy adabiyotimiz yetuk nomayondalari qo‘l urgan, fikrlagan, qiyoslagan, tahlil qilgan mavzular borki, ular adib qalamida yangicha evrilishlarga uchraydi. U talqinida masshtab kengayadi, ovozlari jarangli oshadi, ranglar tiniqlashadi. “Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi”³⁴⁸, - deb yozadi tanqidchi Rahimjon Rahmat. Darhaqiqat, ijodkor qo‘l urgan mavzu borki mavjudligimiz vositasi bo‘lmish ona- Tabiat o‘zligini namoyon qiladi, ruhlantiradi, jilvalanadi, ruhiyatda kechayotgan turfa jarayonlarga hamohang evriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adib asarlarida mistika va dahshat yo‘nalishlari bo‘yicha bitilganlar anchagina. Xo‘sh, u janrning qanday o‘ziga xos tomonlari bor? Avvalom bor, mistika so‘zining ma’nosiga nazar tashlaylik. Bu yunon tilidagi “mistikos”dan olingan bo‘lib, sirli, mavhum, yashirin degan ma’nolarni anglatar ekan. Atrofimizdagi borlik, bir

³⁴⁸ Isajon Sulton. Boqiy darbadar.T.”O‘zbekiston”-2011:-262 b.

qaraganda oddiyday ko‘rinadi va inson o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, eshitgan va tanasining boshqa a‘zolari bilan his qilgan voqeliqqagina ishonadi, deylik. Qadimdan shunday bo‘lib kelgan va hozir ham deyarli shunday. XXI asrda Yer yuzidagi taraqqiyot shu darajaga yetdiki, biz shu kunlarda ko‘zimizga ko‘rinmas elektromagnit to‘lqinlarning mavjudligiga ishonamiz. Aks xolda, zamonaviy texnika, simsiz aloqalar bularsiz vujudga kelmas edi. Bu – eng oddiy va yaqqol misol. Shuningdek, ko‘pchilik, o‘zga odamlar tomonidan sizga tilanadigan yaxshi yoki yomon tilaklarning kuchi mavjudligiga ishona boshlayaptilar. Chunki, odamning ongida ham fikr yuritish jarayonida elektromagnit to‘lqinlar tarqaladilar va atrof muhitga ta’sir ko‘rsatadilar – bu fanda juda ko‘p tajribalar vositasida isbotlangan. Xush adib asarlarining bunga kanday daxli bor? Mana shu joyda Isajon Sultonning reallikdan ham, fan tomonidan isbotlangan ko‘rinmas borliqdan ham tashqarida yashavchi uchinchi olam tilsimotlariga murojaat qilganining guvohi bo‘lamiz.

“Shimol tomondagi qo‘hna tog‘lar silsilasi ustida momaqaldir oq tevarakni titratib gumbirladi. Go‘yo qoyalar yorilib-uvalanib, tutday to‘kilayotgan edi. Chaqmoq chaq nab hammayoqni oniy yog‘du bilan siypalab o‘tdi. Keyin olam yana zulmat qa‘riga cho‘mdi.

Bu manzara ijodkorning “Tilsim lashkari” hikoyasida ilgari surilgan mohiyatni ifodalash unsuri sifatida tasvirlanadi. Har yili “...bir marta, dov-daraxtlar kuz libosini kiyib, tevarak-javonib lovillab yonayotgan qizg‘ish-za‘far yaproqlar yog‘ini ostida qolgan mahalda qo‘zg‘alar, tuni bilan olamning to‘s-to‘polonini chiqarib, tong vaqtidagina tinar edi. Unig g‘alati nom bilan atalishi haqida el og‘zida ajoyib va qadimiy bir rivoyat yurar edi”³⁴⁹.

Tadqiqot metodologiyasi. Hikoya xalq orasida yuradigan qadimiy rivoyat asosida yaratilgan. Ayovsiz jangda yengilayotgan Muqanna afsungarga murojaat qiladi va askarlari sehrlangan sharobni ichib mangulikka yuz burishadi, lashkar boshi qizib turgan tandirga kiradi. Ijodkor rivoyatni mohirona burilish bilan hayotiylikka ulab kitobxon ongida o‘ziga xos asossatsiya, his tuyg‘ular qorishig‘ini paydo qiladi. “Shundan so‘ng asrlar oralig‘ida, har zamon-har zamonda ba’zi kishilarning shamolli kechada yurti kezarayotgan g‘alati lashkari ko‘rganliklari haqidagi bir-biridan qo‘rqinchli va hayratomuz afsonalar paydo bo‘la boshladi.

Aytishardiki bu qadimiy qo‘shin – Muqanna boshliq Siyom qo‘shinlari emish”³⁵⁰.

Beixtiyor esayotgan shamol hikoya tasviridagi qayg‘uli, qo‘rqinchli holatni esga soladi. Yozuvchi Edgar Po ijodida bo‘rtib turadigan tabiat hodisalari va inson ruhiyati, inson ruhiyati va uning moddiylashuvi jarayonlaridagi ifodalarning o‘zbekona tasviriga duch kelganday bo‘lasiz, go‘yo. Yana bir hikoyada (Bog‘i eram) ijodkor fantaziyasi hayot va o‘lim, tug‘ilish va ketish falsafasini bir daraxt timsolida ifodalaydi. Aslida tabiat manzaralari orqali yuqorida ta’kidlaganimizday badiiy asardagi mohiyatni biror obrazga yuklash holati yangilik emas. Biroq I.Sulton tanlagan badiiy tasvir vositasi, ijodkor tanlagan obrazlar barchasidan ajralib turadi. “

³⁴⁹ Isajon Sulton. Boqiy darbadar.T.”O‘zbekiston”-2011:- 243 b.

³⁵⁰ Shu kitob 253 b.

Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma‘noli va ta‘sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmi his qilamiz³⁵¹. Bu fikrning isboti sifati yuqoridagi daraxt obraziga murojaat qilaylik. Daraxt shu qadar balandki uchlari bulutlardan uyoqda. Demak ishora yuqoriga... Barglar ham aynan yuqoridan tushadi... Qahramon umri davomida uning salobatiga uch marta guvoh bo‘ladi. Birinchi marta “Nimani ko‘rding deng? Qopqalari tillodan, tutqichlari billurdan bo‘lgan bir bog‘ning qarshisida ko‘rdim o‘zimni. Qopqa yonida, billur halqani tutib tutib turgan men qatori bir bolakay menga qarab kular va ichkariga imlar edi”. Qahramon inson tili tasviriga ojiz ajoyib bog‘ bilan yuzlashadi. Bog‘ sehri bilan uning ichkarisiga mo‘ralaydi. Mana shunda u daraxt bilan qarshilashadi. “Shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan. Har zamon-har zamonda yaproqlar uzilib tushayotir. Mana, shundoqqina oyog‘im ostiga sarg‘aygan bir barg kelib qo‘ndi. Men egilib qarab, bargda yozuv borligini ko‘rdim. Sarg‘ish tomirchalari bo‘rtib turgan yaproq sirtiga “Xolmuhammad Ziyo o‘g‘li” deb bitilgan edi³⁵².

Tahlil va natijalar. Qizig‘i shundaki bu bog‘ haqida eshitgan odam borki yoqasiga tuflab, qo‘rqishadi dahshatlanadi. Onaizorining xavotirlari boshlanadi. Ammo hech kim u bog‘ haqida aniq narsa demaydi. Demasligi-yu, qo‘rqishlaridan ma‘lumki, U haqda yetarlicha bilishadi. Qahramon umri davomida uch marta bog‘ manzarasi bilan duchlashadi va bu uchrashuvlar har safar yo‘qotishlar bilan yakunlanadi. Oxirgi martada barcha manzara yakuniga yaqinlagan, sarg‘aygan, qarigan, zavolga yuz tutgan. ”...men u bog‘ni yana ko‘rdim. Eshik oldidagi darbon ham men kabi qartayibdi. Asosiga suyanib, horg‘in termulib turipti. Bog‘ning qopqalari lang ochiq. Ichkarida esa o‘sha – shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan bahaybat daraxt. Shoxlaridan hanuz yaproqlar tuzilib tushayotirlar...”³⁵³ Anglashiladiki, insonning bu fanodagi vaqti nihoyalanmoqda. Har qanday intiho u qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar shavqatsizdir. Bu esa o‘quvchi ko‘nglida qayg‘u uyg‘otadi, shu barobarida mayin bir sokinlik, mahzunlik soladi. Hikoyani o‘qir ekansiz orqa fonda ilohiy bir kuy taralib turganday, voqealar mana shu ohang tarovati ostida ruy berayotganini his qilasiz. Adib fantaziyasi yorqin bo‘yoqlar bilan shuuringizni egallab oladi. Ko‘z oldingizda butun bir avlod umri juda sokin notalarda jonlanadi. Ohang bu bilan tugamaydi. “Uni sen ham ko‘rdingmi, zurriyodim?” degan xitob bu fanoning o‘tkinchiligiga-yu va yana hayot davomiyligiga ishora kabi jaranglaydi, go‘yo.

Ijodkor asarlarida tiriklik mazmuni, inson yelkasiga yuklangan ilohiy vazifa, yaratuvchining odil va shafqatsiz qudrati matnlar orasidan bo‘y ko‘rsatib turadiki, buni inkor qilishning hech iloji yo‘q. E‘tiborlisi shundaki buni chiroyli manzaralar tasviri, harir pardali ko‘rinishlar orqali, ramziy ishoralar bilan ifodalaydi. Yozuvchi oldiga qo‘ygan mohiyat

³⁵¹ Isajon Sulton. Boqiy darbadar.T.”O‘zbekiston”-2011:-263 b.

³⁵² Isajon Sulton.Bog‘i Eram.T. Sharq -2015; -213 b.

³⁵³ Ko‘rsatilgan kitob.217 b.

zalvorini mahorat bilan tabiat hodisalariga yuklaydi va qiziqarlisi ular ichidan tom ma’nodagi INSON QALBI, uning to‘lg‘onishlari, iztiroblari, eng asosiysi umr mazmuni bo‘y ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Isajon Sulton asarlarida qalbga yaqin yana bir tomon borki, u barchamiz kundalikda ko‘rib, uchratib va hatto foydalanib yurgan narsalarimizni qalamga oladi. Ha, aynan qalamga olib ular mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirgan holda kitobxonga tavsiya qiladi. Qarashlarimizda ularga nisbatan narsa, jonzot, hashorat yoki o‘simlik emas, balki ular yaratganning mo‘jizasi, ular ham yashashga, ya’ni ilohiy vazifani bajarishga mahkum degan xulosa paydo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isajon Sulton. Boqiy darbadar.T.”O‘zbekiston”-2011.254 b.
2. Isajon Sulton. Bog‘i Eram.T.”Sharq”. -2015. 253 b.
3. To‘liboev X., Allamberganova M. Isajon Sulton ijodiy portretiga chizgilar. T. “Muharrir”-2013. 31b.
4. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. T. 2009. 226 b.